

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

UMAROV DJAMSHED SAYITMURATOVICH

YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTON SHAROITIDA TALABALARNING
FUQAROLIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2022

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
педагогических наук**

**Contente of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Umarov Djamed Sayitmuratovich

Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida talabalarning fuqarolik savodxonligini
rivojlantirish.....3

Умаров Джамшед Сайитмуратович

Развитие гражданской грамотности студентов в условиях обновляемого
Узбекистана.....19

Umarov Jamshed Sayitmuratovich

Development of civic literacy of students in the conditions of a renewed
Uzbekistan.....36

Эълон қилинган ишлар рўйхати

Список опубликованных работ

List of published works41

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

UMAROV DJAMSHED SAYITMURATOVICH

YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTON SHAROITIDA TALABALARNING
FUQAROLIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2022

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2022.2.PhD/Ped3046 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertasiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi-www.tdpu.uz hamda «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida www.ziynet.uz joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xalikov A’zam Abdusalomovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xakimova Muxabbat Fayzievna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rahmatova Feruza Abulqosimovna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa
doktori, (PhD)

Etakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertasiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «__»_____kun soat___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertasiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___) raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.:(99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-76-51.

Dissertasiya avtoreferati 2022 yil «__»_____kuni tarqatildi
(2022 yil «__»_____dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi)

Z.N.Mamarajabova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, ped.f.d., professor

R.G. Isyanov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi, ped.f.n., dotsent

S.S.Bulatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
Seminar raisi, ped.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim muassasalarida YuNESKOning 2030 yilgacha xalqaro ta'lim konsepsiyasi asosida fuqarolik savodxonligini rivojlantirishning innovatsion kreativ modellari ta'lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. Fuqarolik madaniyati, axloqiy sifatlar, immunitet, xulqning tuzilmali hamda refleksiv-ongli munosabatlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida yoshlarda vatanparvarlik munosabatlarini shakllantirish, shaxs, oila, jamiyat va davlat o'rtasida ijtimoiy munosabatlarga sodiqlik ruhini tarbiyalash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shaxsni ijtimoiylashtirish, demokratik qadriyatlarni asrash va shu bilan birga oilalar mustahkamligini ta'minlash, xuquq, erkinlik va majburiyatlarni ruyobga chiqarish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlariga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda talabalarining fuqarolik savodxonligini rivojlantirish, ularni milliy, komil inson ruhida tarbiyalash, yoshlarga xavf solayotgan tahdidlarga qarshi kurashishning ma'naviy-ma'rifiy jihatlarini takomillashtirishning me'yoriy asoslari ishlab chiqilmoqda. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida «Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish»¹ hozirgi kunning eng ustuvor vazifalaridan biri etib belgilangan. Bu esa talabalarning fuqarolik immunitetni rivojlantirish, dars va darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi O'RQ-406-son "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019 yil 9 yanvardagi PF-5618-son "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida", 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmonlari, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy,

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. ПФ-4947-сон. 2017 йил 7 февраль. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

fuqarolik, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Fuqarolik savodxonligini rivojlantirishning asosini fuqarolarni eng yuksak ma'naviy-axlokiy sifatlarga xosligi tashkil etadi. Shuni inobatga olganda U.I.Maxkamov, O.B.Musurmonova, S.Y.Nishonova, R.U.Otamurodova kabilar talabalarning fuqarolik savodxonligini oshirishda milliy kadriyatlardan samarali foydalanish shartlari; A.A.Azizxo'jaev, Sh.A.Abbosxo'jaev, E.M.Abzalov, Z.M.Islomov, O'H.Muhamedov, O.T.Nasiriddinova X.T.Odilqoriev, U.N.Saburov, R.A.Saidov, U.T.Tadjixanov, X.N.To'ychieva, M.A.Xamidova va boshq. fuqarolik madaniyatini yuridik fan nuqtai nazaridan; T.I.Ergashev, I.B.Sharipov Ya.B.Kadirova kabi tadqiqotchilar sub'ekt-axloqiy yondashuv asosida talabalarning fuqarolik savodxonligini rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratganlar.

Fuqarolik savodxonligini rivojlantirishning axloqiy tomonlariga e'tibor qaratgan V.L.Abushenko K.V.Aranovskiy, S.S.Alekseev, A.G.Asmolov, Ya.M.Belson, B.Barber, N.V.Bordovskaya A.B.Vengerov, A.S.Gayazov, B.S.Gershunskiy, A.I.Kovler, M.N.Marchenko, Ye.A.Pevsova, S.V.Tatarinseva, Yu.V.Tixonravov, N.M.Yurashevich kabilarning ilmiy izlanishlarida yoshlar o'rtasida jinoyatchilik va kriminogen xatti-harakatlarning oldini olish, talabalarning huquqiy ongini shakllantirish madaniyati Yu.N.Kulyutkin, V.G.Onushkin, S.B.Savelova, L.I.Chernov, N.V.Davletshina, B.B.Kimlika, R.Klark, T.V.Nabieva, G.A.Ovchinnikov, D.U.Rey tomonidan tadqiq etilgan. A.Ya.Danilyuk, Ye.I.Xavanovning ishlarida axloqiy-fuqarolik immunitetini rivojlantirishning mohiyati batafsil izohlab berilishi bilan birga, shaxsda Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish masalalari tadqiq etilgan.

Xorijlik olimlardan Brett A. Brossayt (Brett A. Brosseit), Denton Karter (Denton Carter), Kandas Mirebil (Candace Mirabile), Kristin Xelge (Kristyn Helge), Smit Patrik Allan (Smith Patrick Allan), Mari-Deniz Duyon (Marie-Denise Douyon), Robert V. Begilov (Robert W. Bigelow) tomonidan huquq fanlarini o'qitishga zamonaviy yondashish, innovatsion tamoyillar asosida talabalarning huquqiy ongini va fuqarolik madaniyatni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertasiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining PZ-20170923121 raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" nomli amaliy loyiha doirasida bajarilgan (2017-2020 yy).

Tadqiqotning maqsadi yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida talabalarning fuqarolik savodxonligini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida talabalarning fuqarolik savodxonligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida talabalarning fuqarolik savodxonligini rivojlantirish holatini aniqlash;

yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida talabalarning fuqarolik savodxonligini

rivojlantirish modelini takomillashtirish;

yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida talabalarning fuqarolik savodxonligini rivojlantirishning usul va vositalarini takomillashtirish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida talabalarning fuqarolik savodxonligini rivojlantirish jarayoni belgilab olingan va tajribacinov ishlariga Termiz davlat universiteti, Toshkent davlat pedagogika universiteti, Jizzax davlat pedagogika universitetidan 311 nafar respondent-talabalar jalb qilindi.

Tadqiqotning predmetini yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida talabalarning fuqarolik savodxonligini rivojlantirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Yurtimizda oxirgi yillarda rivojlanib borayotgan ijtimoiy-huquqiy bilishning huquqiy, sistemali-strukturaviy yondashuvi asosida, modellashtirish jihatdan tahlil qilish; talaba yoshlarning fuqarolik savodxonligini oshirish, talabalarning bilimlarini rivojlantirish metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarning fuqarolik savodxonligi turmush tarzidagi o'zgarishlar transformatsiyasi tendensiyalarida yuzaga kelgan shaxsiy qiziqishlarni yosh xususiyatlari bilan bog'liq harakatlarni rejalashtirish ko'nikmalari bilan identivligini moslashtirishga qaratilgan ahloqiy adekvatligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

talabalarning fuqarolik savodxonligini rivojlantirish modeli yangi sharoitlarga tezkor moxirona va mustaqil moslashish, madaniy muhit bilan keng muloqat madaniyatni egallash hamda ahloqiy qadriyatlar va shaxsiy sifatlarni o'zaro adekvat uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

talabalarning fuqarolik savodxonligini rivojlantirish mezonlari ijodiy topshiriqlarni berish, sub'ektiv anglash, axborot tahdidlarga qarshi kurashishning ifodalanganlik tadbirlari va huquqiy qadr-qiyamatni ulug'lashga kreativ yondashish, vaqt va makonda sifatning dinamik o'zgaruvchanligiga bosqichma-bosqich moslashtirib borish asosida takomillashtirilgan;

talabalarning fuqarolik savodxonligini ribegilanganlik darajasini baxolash mexanizmi ematsional-mativatsion, infarmatsion-kognitiv faoliyatga doir va akseologik mezonlarni tashxis etishning reflektiv va proektiv produktivligiga erishishga qaratilgan pedagogik chellenjlarni qo'llash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida talaba va yoshlarning fuqarolik savodxonligini rivojlantirishda huquqiy madaniyat, huquqiy qadriyat, huquqiy ong muammolariga nisbatan kompleks yondashishning tashkiliy-metodikasi va texnologik shart-sharoitlari aniqlangan;

talabalarning huquqiy savodxonligini shakllantirishdagi salbiy omillarga barham berish, mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirishning muhim omili sifatidagi metod va vositalar aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada yaxlit va texnologik yondashuvning hal etilganligi; ilmiy tadqiqot ishining maqsadini pedagogik nuqtai nazardan to'g'ri baholangani, belgilangan vazifalarning tadqiqot yechimini ta'minlashga qaratilgani; tadqiqotning samarali ko'p bosqichli tajriba-sinov, natijalarni matematik-statistik tahlil; yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida

talabalarining fuqarolik savodxonligining rivojlangani hamda yuqori darajaga ega bo'lgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati fuqarolik savodxonligini rivojlantirishning shakl, metod va mazmunini aniqlashning yaxlit tizimi ishlab chiqilgani, shuningdek, fuqarolik savodxonligini rivojlantirishning mezonlari aniqlangani va mexanizmi takomillashtirilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, talabalarining fuqarolik savodxonligini rivojlantirishda pedagogik faoliyatni takomillashtirishga qaratilgan, fuqaroning fuqarolik savodxonligini o'rganuvchi ilmiy-pedagogik metodlari belgilanganidan iborat.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida talabalarining fuqarolik savodxonligini rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida: talabalarining fuqarolik savodxonligi turmush tarzidagi o'zgarishlar transformatsiyasi tendensiyalarida yuzaga kelgan shaxsiy qiziqishlarni yosh xususiyatlari bilan bog'liq harakatlarni rejalashtirish ko'nikmalari bilan identivligini moslashtirishga qaratilgan ahloqiy adekvatligini ta'minlash asosida takomillashtirishga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan KA-1-003-raqamli «Yoshlarda vatanparvarlik dunyoqarashini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik texnologiyalari yagona tizimini ishlab chiqish» nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2021 yil 1 dekabrda 02-07-3842/04-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalarining fuqarolik savodxonligini rivojlantirish tamoyillarining pedagogik imkoniyatlari kengaytirishga sharoit yaratilgan;

talabalarining fuqarolik savodxonligini rivojlantirish modeli yangi sharoitlarga tezkor moxirona va mustaqil moslashish, madaniy muhit bilan keng muloqat madaniyatni egallash hamda ahloqiy qadriyatlar va shaxsiy sifatlarni o'zaro adekvat uyg'unlashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan PZ-2017927124-raqamli «Ta'lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish» nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2021 yil 1 dekabrda 02-07-3842/04-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarining sub'ektli-ahloqiy yondashuv asosida talabalarining fuqarolik savodxonligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirishga erishilgan;

talabalarining fuqarolik savodxonligini rivojlantirish mezonlari ijodiy topshiriqlarni berish, sub'ektiv anglash, axborot tahdidlarga qarshi kurashishning ifodalanganlik tadbirlari va huquqiy qadr-qiyamatni ulug'lashga kreativ yondashish, vaqt va makonda sifatning dinamik o'zgaruvchanligiga bosqichma-bosqich moslashtirib borish asosida takomillashtirishga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan KA-1-003-raqamli «Yoshlarda vatanparvarlik dunyoqarashini shakllantirishning ilmiy-pedagogik texnologiyalari yagona tizimini ishlab chiqish» nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2021 yil 1 dekabrda 02-07-3842/04-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarining sub'ektli-ahloqiy

yondashuv asosida talabalarning fuqarolik savodxonligini strukturaviy komponentlarini takomillashtirishga imkon yaratilgan;

talabalarning fuqarolik savodxonligini ribegilanganlik darajasini baxolash mexanizmi ematsional-mativatsion, infarmatsion-kognitiv faoliyatga doir va akseologik mezonlarni tashxis etishning reflektiv va proektiv produktivligiga erishishga qaratilgan pedagogik chellenjlarni qo'llash asosida takomillashtirishga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan PZ-2017927124-raqamli «Ta'lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish» nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2021 yil 1 dekabrda 02-07-3842/04-son ma'lumotnomasi). Natijada sub'ektili-axloqiy yondashuv asosida talabalarning fuqarolik savodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xuzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar va ilmiy natijalarni chop etishga mo'ljallangan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shundan 4 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 126 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, ob'ekti va predmeti, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **”Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida talabalarning fuqarolik savodxonligini rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlanib, diyorimiz hududida shakllangan madaniyatimizga xos qadriyatlar, “Avesto” va “Qur'on” kabi manbalar, yurtimiz hududida tug'ilib o'sgan Buxoriy va Termiziy, Forobiy va Beruniy, Ibn Sino va Najmiddin Kubro, Ulug'bek va Navoiy kabi allomalarning g'oyalari va ta'limotlari, yoshlarni ma'naviy yuksaltirishga qaratilgan ilmiy-nazariy qarashlar hamda mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab bergan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoev asarlarida aks etgan.

Yangi O'zbekiston jamiyatining ravnaqi uning moddiy va ma'naviy sohalari bilan bevosita bog'liq. Butun dunyodagi va mamlakatimizdagi global o'zgarishlar tufayli ijtimoiy hayotdagi, iqtisodiy, ekologiya, demografiya inqirozli vaziyatlarni yengish zamonaviy hayotning mavjud salbiy holatlari bartaraf etiladigan yangi turdagi jamiyatni qurish bo'yicha davlat va fuqarolarning hamkorlikdagi urinishlarini talab etadi.

Keng jamoatchilik muhokamasi natijasida “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yettita ustuvor yo‘nalishlardan iborat 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi: 1-yo‘nalish – “Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish”. 2-yo‘nalish – “Mamlakatimizda adolat va qonun ustivorligi tamoyillarini taraqqiyonning eng asosiy va zarur shartlariga aylantirish”. 3-yo‘nalish – “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘‘sish sur‘atlarini ta‘minlash”. 4-yo‘nalish – “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapiktalini rivojlantirish”. 5-yo‘nalish – “Ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani yangi bosqichlarga olib chiqish”. 6-yo‘nalish – “Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish”. 7-yo‘nalish – “Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq progmatik va faol tashqi siyosat yuritish”.

Fuqarolik savodxonligi huquqiy madaniyatning huquqiy qadriyatlarini o‘zlashtirish va ulardan foydalanish darajasidan iborat bo‘lgan muhim xususiyati boshqa xossalardan mahrum etmaydi. Avvalo, huquqiy madaniyat huquqiy qadriyatlarsiz bo‘lishi mumkin emas. Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning g‘oyat muhim vositasi bo‘lgan huquqning o‘zi ham huquqiy qadriyatlar jumlasiga kiradi. Shu bilan birga, huquqiy qadriyatlar huquqiy bilimlar, huquqiy qonun-qoidalardir. Huquqiy qadriyatlarda oldingi tajriba jamlangan bo‘lib, uni o‘zlashtirib olish to‘g‘ri qarorlar qabul qilish, o‘z huquq va burchlarini fuqarolar, jamiyat, davlatning qonuniy manfaatlari bilan muvofiqlashtirgan holda harakat qilish imkonini beradi.

Har bir inson o‘z davlatining fuqarosi ekanini his qilishi, o‘ziga berilgan huquq va erkinliklarga ongli ravishda munosabatda bo‘lishi va ularni qadrlashi orqali zaruriy mehnat bilan qo‘lga kiritilayotgan demokratik qadriyatlarni asrashi va himoya qilishi bugungi kunning eng muhim g‘oyalaridan biridir. Talabalarning huquqlari va erkinliklari muayyan bir ne‘matlarga intilishdir. Fuqarolik majburiyati-ijtimoiy munosabatlar normal amal qilishini ta‘minlash uchun jamiyat shaxs oldiga qo‘yadigan talablar majmui bo‘lib hisoblanadi. Fuqarolar erkinligi uning huquqida mustahkamlab qo‘yilgan hulq-atvor namunalarining ob‘ektiv ahamiyatini tushunish hamda barcha ob‘ektiv va sub‘ektiv omillarni hisobga olgan holda qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Huquq, erkinlik va majburiyatlarni ro‘yobga chiqarish hamma vakt qaror qabul qilish hamda ichki e‘tiqodga emas, balki davlatning manfaatlari, ya‘ni talablariga ham javob beradigan hulqni tanlab olish bilan ham bog‘liqdir. Har qanday to‘g‘ri qaror fuqaroning yuksak huquqiy madaniyatining ajralmas bir qismidir. Fuqarolardagi yuqori darajadagi huquqiy madaniyat, huquq, erkinliklar va majburiyatlar tegishli suratda amalga oshirilishining muqarrar sharti bo‘lib xizmat qiladi.

Dissertatsiya muammosini ishlab chiqish uchun huquqshunos olimlarning fuqarolik savodxonligi yuzasidan huquqiy tizimdagi huquqiy madaniyatga bag‘ishlangan asarlari alohida ahamiyatlidir.

Shuningdek, huquqiy madaniyatni rivojlantirishda fuqarolik savodxonligini rivojlantirish bo‘yicha E.X.Jabborov, A.M.Kuronov P.T.Maxmudov T.A.Saidov I.U.Tojixonov, va B.S.Biblarning ilmiy ishlarida yoshlarning hukukiy ongi va madaniyati tushunchalari uning o‘ziga xosligi va vazifalari, madaniyatining boshqa

shakllari va huquqi bilan o‘zaro aloqasi, fuqarolik savodxonligining qonun hujjatlarini takomillashtirish, odamlarning ijtimoiy-huquqiy faolligini rivojlantirishdagi roli kabi muhim masalalar batafsil tahlil qilingan, shuningdek, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati ko‘pincha xuddi shu nuqtai nazardan bayon etilgan.

Olim K.Usmonovning fikricha, yoshlarning fuqarolik madaniyatini shakllantirish muammosi ilmiy jihatdan qay darajada ishlab chiqilgani huquqiy tarbiya sohasidagi bilish jarayoni bilan ham belgilanadi. Bizning ilmiy ishimiz mavzusini o‘rganishimiz uchun huquqiy tarbiyaga doir qo‘lyozmalardagi huquqiy madaniyatga doir holatni o‘rganish bilan ham chambarchas bog‘liq holda qarab chiqilgan. Fuqarolik savodxonligini rivojlantirishning samarali usullari milliy va ma‘naviy ahloqiylik qadriyatlariga nisbatan hurmatda bo‘lish asnosida asosiy vosita sifatida yoshlarning o‘z boshqarish qobiliyatlariga egaliklarini e‘tirof etadi.

Abu Nasr Forobiy asarlarida yetuk inson ta‘lim-tarbiyasining eng muhim xususiyatlaridan biri uning kasb-hunarni qay tarzda egallashi ekaniga alohida urg‘u beradi. Alloma o‘zining «Fozil odamlar shahri» asarida hunar insonni baxt sari yo‘naltiruvchi, fozillik sari yetaklovchi yana bir muhim omil ekaniga alohida e‘tibor qaratib, barcha shaxs malakali hunarlar egasi bo‘lishi kerakligi haqida so‘z yuritadi. Allomamiz fikricha, shaxsdagi barcha xislatlar, fazilatlar, odobu ahlok, kasb-hunar, ta‘lim va tarbiya yo‘li orqali hal qilinadi. Alloma «Fozil odamlar shahri» nomli kitobida ta‘lim va tarbiyaga qo‘yidagicha izox beradi «Ta‘lim degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa, shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir. Ta‘lim so‘z o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o‘rganishdir ya‘ni, shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo‘lgan ish harakatga, kasb-hunarga berilgan bo‘lishidir. Agar ular ish, kasb-hunarga berilgan bo‘lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig‘i bo‘ladilar» .

Bizning daho vatandoshlarimiz Abu Nasr Forobiy va Alisher Navoiy ijodiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, har ikkala mutafakkir ham o‘z asarlarida insonlarni xalq uchun kayg‘urish, eng oliy insoniy hislatlardan biri ekani va ularni shakllantirish ijtimoiylikni qaror toptirish va turli xil illatlarga kurashishni yetakchi o‘ringa qo‘yadi.

Xalqning yashash tarzi, ma‘naviy madaniyati, yuksak ahlokiy qadriyatlari ularning asarlarida o‘z aksini topgan.

Abu Xamid G‘azzoliy ta‘riflagan fuqarolik madaniyatiga xos bo‘lgan ko‘plab xislatlar Boburning «Boburnoma» asarida ham o‘z aksini topgan va o‘ziga xos shaklda rivojlantirilgan. Zahridin Muhammad Bobur o‘z asarlarida asosiy e‘tiborni yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratgan. «Boburnoma» asarida u har bir inson insoniylik xususiyatlariga ega shaxs bo‘lishi kerakligini o‘ta darajada aniqlik bilan ta‘kidlangan.

Fikrimizcha, A.S.Gayazov taklif qilgan zamonaviy fuqaroning xislatlari izoh talab etadi. Muallif ko‘rsatgan ba‘zi xislat-fazilatlar fuqaroning xususiyatlariga xos emas, deb hisoblaymiz. Shunday qilib, inson salomatligi har bir inson uchun muhim bo‘lgan universal xususiyatdir. Agar inson ob‘ektiv sabablarga ko‘ra jismoniy salomatlikka ega bo‘lmasa, bu uning fuqaro bo‘lolmasligini anglatmaydi. Kasbiy ta‘lim to‘g‘risida ham shunday deyish mumkin: ta‘limning yetishmasligi insonning

fuqarolik xususiyatlari shakllanishiga to‘sqinlik qila olmaydi.

Ilmiy adabiyotlarning keyingi tahlili zamonaviy fuqaroning xislat-fazilatlari ro‘yxatini to‘ldirishga imkon beradi. Fuqaro sifatida olimlar tomonidan ilgari surilgan xislat-fazilatlar haqida qisqacha ma’lumot berdik.

“Fuqarolik” tushunchasining ta’riflari orasida biz juda ko‘p xislat-fazilatlarga ega bo‘lish haqidagisini tanladik. Tahlil qilish uchun deyarli bir xil ta’riflarni olmadik. Tahlil qilish uchun tanlangan ta’riflar, bizningcha, milliy fanimiz miqyosida “fuqaro” tushunchasining anglanishini ifodalaydi.

Bu borada N.V.Bordovskaya va A.A.Rean shunday fikr bildirgan: fuqaro nafaqat konstitutsion qonunlarni, balki kasbiy majburiyatlarni ham bajarishi, mamlakat ravnaqiga o‘z hissasini qo‘shishi shart. Shu bilan birga, u harbiy yoki ekologik ofatlar tahdid soladigan butun sayyora taqdiri uchun javobgarlikni his qilishi va dunyo fuqarosi bo‘lishini his etishi kerak.

Juda ko‘pchilik olimlar fuqarolik xislat-fazilatlari orasida javobgarlik hissining turli jihatlarini ta’kidlagan. Bu o‘z mamlakati va xalqining taqdiri uchun shaxsiy javobgarlik; o‘z mamlakatining buguni va kelajagi uchun javobgarlik; o‘z xatti-harakatlari uchun jamiyat oldida javobgarlik; butun sayyora taqdiri uchun javobgarlik; fuqarolik xatti-harakati va faoliyatiga ijtimoiy mas’ullikdan iborat.

Demak, olimlar nuqtai nazaricha, fuqaroga xos bo‘lgan boshqa bir huquqiy mafkura sohasidagi qadriyatlarni mo‘ljallab ish tutish fuqaroning huquqiy savodxonlik sohasidagi hulq-atvoriga faol ta’sir ko‘rsatadi. Fuqaroning o‘z huquq va majburiyatlarini bilish, ularni baholashi va faol amalga oshirishga tayyor bo‘lishi mafkura orqali shakllanib, ularni ijtimoiylashuv asosida kerakli xulqqa ega bo‘lishga undaydi. Hulq-atvorning qadri to‘g‘risida fikr-mulohazalar, o‘z navbatida, huquqiy munosabatlar sub’ektlarining huquq va majburiyatlari doirasini belgilashni zarur qilib qo‘yadi. Butun insoniyat manfaati uchun o‘zini-o‘zi to‘liq anglagan holda namoyon etish; vijdonlilik (nafaqat konstitutsiyaviy qonunlargagina emas, balki kasbiylik yuzasidan kelib chiqadigan majburiyatlarni ham vijdonan his qilish, ya’ni unga vijdonan amal qilish; xalq oldidagi har qanday haqiqiy zarur bo‘lgan majburiyatlarni keskin ravishda anglash va ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi lozim.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida talabalarning fuqarolik savodxonligini rivojlantirish mazmuni, shakli, metodi va vositalari**» deb nomlangan. Unda OTM talabalarining fuqarolik savodxonligini rivojlantirish metodlari fuqarolik savodxonligi rivojlanishining a’lo darajada kechishini belgilab beradigan, o‘quv jarayonlarini ko‘nikma va malakalari yuqori bo‘lgan o‘qituvchilar, zamon talablariga javob beradigan o‘quv hujjatlari va adabiyotlar bilan to‘ldirib borish, ta’lim-tarbiya, ilm-fan va amaliyot o‘rtasida foydali aloqalarni o‘rnatish maqsadga muvofiqligi asoslangan.

Talabalarni yuksak ma’naviy ahloqiy ruhda tarbiyalash ularda ma’naviy jasorat tuyg‘ularini rivojlantirish turli savodxonligini ma’naviy tahdidlardan himoya qilishning muhim omilidir. Xozirgi globallashuv sharoitida fuqarolarning keng qatlami, ayniqsa yoshlarda milliylikka sodiqlik, vatanparvarlik tuyg‘usi, yuksak ma’naviy-ahloqiy qarashlarni tarbiyalash, ularda ma’naviy-savodxonligini immunitetni rivojlantirishning dolzarbligi yanada oshmoqda. Chunki jahonda axborot xuruji, ommaviy madaniyat niqobi ostida ma’naviy savodxonlikka tahdidlar tobora

kuchaymoqda. Shunday ekan, mamlakatimizda yoshlarga qaratilgan shunday ma'naviy xurujlardan asrab-avaylash uchun ham yoshlarning fuqarolik bilimlarini oshirish davr taqozosidir.

Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda eng muhim omillardan yana biri – tarixiy xotira – ajdodlarga yuksak hurmat va ehtirom ifodasi bo'lib, o'tganlar xotirasini yodda saqlagan holda e'zozlab yashash demakdir. O'zbekistonda keyingi besh yillikda amalga oshiriladigan islohotlarning zarur siyosiy, ijtimoiy, iktisodiy va ma'naviy asoslarini yaratib berishga karatilgan Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan tarakkiyot strategiyasining 73-maqsadida “Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish” alohida takidlangan. Yoshlarni shunday an'ana ruhida tarbiyalash, Vatanimiz tarixi bilan qurollantirish ma'naviyat va milliy mafkurani rivojlantirish sohasidagi kechiktirib bo'lmas vazifa ekani barchamizga birdek ayon.

Talabalarda jamiyatda yurish-turish qoidalariga amal qilishda fuqaro tarbiyasining roli nihoyatda kattadir. Fuqaro tarbiyasida nafaqat xuquqiy bilimlar, balki dinimiz, an'alarimiz bilan sug'orilgan bilimlar ham kerak. Demak, talaba ahloqiy qadriyatlar bilan bog'liq bilimlarga ega bo'lishi kerak. Biz demokratik davlat bo'lganimiz bilan yillar mobaynida shakllangan an'alarimiz bor, buni inobatga olmasdan bo'lmaydi.


Tadqiqot doirasida talabalarning fuqarolik savodxonligini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi. Bu model boshqa modellardan OTM talabalarning fuqarolik ilmini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish, axloq normalarini to'g'ri baholash, jamiyatdagi huquq bilan bog'liq muammolariga ongli ravishda munosabatda bo'lish kabi jihatlari bilan farqlanadi.

Fuqarolik savodxonligini oshirish xavflar transformatsiyasini o'rganish va ularga qarshi pedagogik profilaktika ishlarida meyoriy-fuqarolik hujjatlari, fuqarolik targ'ibot resurslaridan samarali foydalanish ishlari manzilli amalga oshirilmagan. Mazkur muammoning asoslarini ishlab chiqish esa oilalarda talabalarning fuqarolik savodxonligini rivojlantirishda amaliy samara beradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Yangilanayotgan o'zbekiston sharoitida talabalarning fuqarolik savodxonligini rivojlantirish samaradorligi”** deb nomlangan. Unda pedagogik tajriba-sinovning tashkil etilishi va o'tkazilishi, natijalar tahlili bayon qilingan.

Talabalarning fuqarolik savodxonligini rivojlantirish asosida yo'naltirilgan pedagogik tizimning samaradorligini aniqlash muhim shartlardan biri, ya'ni OTMlarda ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlarining to'g'ri va aniq tashkil etilishi muhimdir.

Ilmiy ishning birinchi bobida har tomonlama aniqlangan kamchiliklarni yo'qotish va yutuqlarni boyitishni ta'kidlovchi tajriba ishlari davom ettirish bilan belgilab olindi. Shunga ko'ra, amalga oshirilgan ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlarini samarali tashkil etish maqsadida maxsus ko'rsatkichlar tizimini o'z ichiga olgan dastur ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur dastur asosida talabalarda amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarining maqsadga muvofiqligini ta'minlovchi ko'rsatkichlar, shuningdek, tajriba-sinov ishlari samaradorligini aniqlash metodikasi yoritildi.



1-rasm. Talabalarining fuqarolik savodxonligini rivojlantirish modeli

Kuzatuv ishlari jarayonida quyidagi vazifalar hal qilindi:

1. Tajriba-sinov maydonchalari aniqlandi.

2. Tajriba-sinov muddatlari, bosqichlari belgilandi va har bir bosqichda amalga oshiriladigan xususiy vazifalar aniqlandi.

3. Tajriba-sinov jarayoni ishtirokchilari, ya'ni respondentlar soni belgilab olindi hamda tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi.

4. Respondentlar tajriba-sinov ishlarining amalga oshirilishidan xabardor qilindi.

5. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etuvchi mas'ullar aniqlandi.

6. Tajriba-sinov materiallari sifatida dastlabki ishlanmalar tayyorlandi va uning mazmuni tadqiqot bazasi sifatida universitet kengashlari yig'ilishlarida muhokama etildi.

7. Talabalar bilan tajriba-sinov jarayonida qo'llanadigan maqbul shakllar, metodlar va vositalar belgilab olindi.

8. Ishlab chiqilgan metodika ta'kidlovchi tajriba-sinov jarayonida sinovdan o'tkazildi hamda uning natijalari tahlil etildi.

1-jadval

Tajriba-sinov ishlari bosqichlari, maqsadi va metodlari

Bosqich	Tavsifi
I bosqich (2018-2019 yy)	Maqsad – oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan talabalarning fuqarolik savodxonligini oshirishning mavjud holatini o'rganish va muammoning yechimini hal etishning foydali bo'lgan yo'nalishlarini belgilab olish.
	Metodlar: tekshirish va taqqoslash, birlashtirish, tartibga solish; anketa; test; kuzatish; talabalar bilan suhbat o'tkazish; aniqlovchi eksperiment; matematik statistika metodlari; ma'lumotlarga ishlov berishning grafik metodlari; natijalarga ishlov berishning matematik metodlari.
	Vazifalar: savodxonlikni qanday holatdaligini aniqlab olish; ushbu holatni rivojlantirishga oid modelni ishlab chiqish; ushbu holatni rivojlantirishga oid ta'limiy va tarbiyaviy jarayonlarni aniqlash; nazorat va tajriba guruhlarini shakllantirish; fuqarolik savodxonligini oshirishning tamoyillarini belgilab olish.
II bosqich (2019-2020 yy)	Maqsad – 1. Shakllantiruvchi tajriba-sinovni o'tkazish. 2. Tadqiqot farazini aniqlashtirish va tekshirish. 3. Taklif etilayotgan inovatsiyalarni tajriba jarayonlarida ishlatib ko'rish.
	Metodlar: ta'lim oluvchining shart-sharoitlari bilan tanishish, ularni o'quv jarayonlarini o'rganish; shu soha yetakchilari bilan birgalikda baholash; so'rovnomalar o'tkazish shu sohaga oid testlar olish; raqamlarga oid tahlillar olib borish, olingan ma'lumotlarga ishlov berish.
	Vazifalar: Ilmiy ishni modelini tuzib olish; raqamlarga tayangan holda tahlil o'tkazish; olingan natijalarni hayotda qo'llab ko'rish; oxirgi hal qiluv qarorga kelish; talabalarning fuqaro savodxonligini oshirishga oid tavsiyalar ishlab chiqish.
III bosqich (2020-20201 yy)	Maqsad – O'rganilayotgan mavzu yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish; o'rganilayotgan mavzuga oid ma'lumotlarni izlab topish va tadqiqot ishida foydalanish.
	Metodlar: raqamlarga tayangan holda tahlillar olib borish, ma'lumotlarni taqqoslash, yig'ilgan dallillarni joy-joyiga ko'yish.
	Vazifalar: o'rganilayotgan mavzuga oid tavsiyalar ishlab chiqish, ularni amalda qo'llab ko'rish, barcha dalallarni to'plagan holda dissertatsiyani shallantirish, olingan bilimlarni kelajakda amaliyotda foydalanishni yo'lga qo'yish.

9. Ishlab chiqilgan metodika samaradorligini aniqlashga erishish. Shu maqsadda tadqiqot ob'ekti hisoblangan tajriba-sinov maydonlarida auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda taqdim etilayotgan metodikadan foydalanildi hamda uning samaradorligi aniqlandi, zarur holatlarda uning mazmuniga o'zgartirishlar kiritildi.

10. Talabalarning fuqarolik savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan tajribalar izchillik bilan tashkil etiladigan va uning muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlovchi sharoitlar yaratildi.

2-jadval

Diagnostik dasturni ishlab chiqishning vazifalari

Axborot ishonarliligi ko'rsatkichlari	Vazifalar
Axborotning asoslanganligi	Talabalarda fuqarolik savodxonligini rivojlantirish mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlashtirish
Axborotning representativligi	Zaruriy hajmdagi tanlamalar (ishtirokchilar)ni aniqlashtirish
Axborotning barqarorligi	Diagnostik tekshirishi muddatini aniqlashtirish
Axborotning to'g'riligi va aniqligi	Talabalarning axborot xavfsizligini ta'minlashga tayyorlik darajasini aniqlash

Quyida mazkur tamoyillarga qisqa to'xtalib o'tamiz.

Yaxlitlik tamoyili: a) tizimli-jarayonli yondashuv; b) talabalarni kasbiy tayyorlash jarayonida o'rganilayotgan hodisaning o'rnini aniq belgilash; v) o'rganilayotgan hodisaning dinamikasini ochib berishni talab etadi. Mazkur tamoyil asosida talabalarda fuqarolik savodxonligini rivojlantirish modelini amalga oshirishga rahbarlik qilindi.

3-jadval

Talabalarda fuqarolik savodxonligining rivojlanganlik darajasini baholash mexanizmi

Mezonlar	Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkich bahosi	Ko'rsatkichning miqdor bahosi
Emotsional-motivatsion	Milliy g'oya va mafkurani o'zlashtirish, yot g'oya va mafkuralarga qarshi turish motivlarining shakllanganligi	25-30	5
		15-24	4
		24 va undan past	3
Informatsion-kognitiv	G'oyaviy-mafkuraviy bilimlar, yot g'oya va mafkuralarga qarshi kurashishga oid bilimlarning to'liqligi	10-9	5
		8-7	4
		6-0	3
Faoliyatga doir	Moslashuvchan (Soft skills) va maxsus (Hard skills) kompetensiyalarni o'zlashtirganlik	0-3	5
		4-9	4
		10-30	3
	Refleksiv nuqtai nazarning shakllanganligi	148 va undan yuqori	5
		114-147	4
		113 va undan past	3
Aksiologik	Milliy g'oya va mafkuraga aksiologik munosabat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarining shakllanganligi	22-28	5
		29-50	4
		51-66	3
	Vatanparvarlik va fuqarolikka oid qadriyatlarining shakllanganligi	48-43	5
		42-36	4
	35 va undan past	3	

Ob'ektivlik tamoyili: a) bir qancha metodlar bilan har bir dalilni tekshirish; b) tadqiq etilayotgan ob'ektdagi o'zgarishlarning har tomonlama namoyon bo'lishini qayd etib borish; v) mazkur tadqiqot ma'lumotlarini boshqa izlanishlarda qo'lga kiritilgan ma'lumotlar bilan solishtirishni talab etadi. Ushbu tamoyildan olingan dalillarni baholash va tahlil etishda foydalanildi.

Samaradorlik tamoyilining mohiyati shundaki, olingan natijalar talabalarni kasbiy tayyorlashning tipik, standart shart-sharoitlarida qo'lga kiritilgan natijalardan yuqori bo'lishi lozim. U ham tamoyil, ham tadqiqotning yakuniy maqsadidir. Mazkur tajriba-sinov ishlari jarayonida pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirish metodikasini rejalashtirishda o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Tajriba-sinov ishlariga Toshkent davlat pedagogika universiteti, Termiz davlat universiteti, Jizzax davlat pedagogika institutining 311 nafar respondent-talabalari jalb qilindi

“Falsafa”. “Fuqarolik jamiyati”, milliy g'oya turkumiga kiruvchi, “Umumiy pedagogika”, “Psixologiya”. “Ma'naviyat asoslari” fanlarni o'qitish jarayonida talabalarning milliy g'oya va mafkurani o'zlashtirish darajasi tahlil etildi.

Natijalarni tahlil qilish uchun asos sifatida olingan yo'nalishlar va respondentlar soni quyidagicha bo'ldi.

Tajriba sinov natijalari

4-jadval

T.r.	OTM	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Jami
1	TerDU	51	48	99
2	JDPI	31	30	61
3	TDPU	75	76	151
4	Jami	157	154	311

Tajriba guruhlarida o'quv jarayoni tadqiqotda taklif qilingan metodika asosida, nazorat guruhlarida esa an'anaviy metodlar asosida olib borildi. Tajriba-sinov natijalari tahlili tajriba guruhlarida talabalarning fuqarolik savodxonligi nazorat guruhlaridagina nisbatan sezilarli o'sganini ko'rsatdi. Bu esa tadqiqot farazining to'g'riligi, ishlab chiqilgan metodikaning samarali ekanidan dalolat beradi.

XULOSA

Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida talabalarning fuqarolik savodxonligini rivojlantirish muhim pedagogik muammo bo'lib, uni hal etish nafaqat talabalarning huquqiy xulq motivlarini rivojlantirish, balki huquqiy xulq tajribasini rivojlantirish, talabalarning huquqiy jamiyatini qurish qadriyatlariga yagona qarashlar, konsensusning bo'lmasligi sharoitida yo'naltirish imkonini ham beradi.

Siyosiy immunitetni oshirish oliy ta'lim muassasasida tahsil oluvchilar ruhiyati, qadriyatlarga munosabati, fuqarolik tarbiyasi, madaniyatini alohida o'rganish imkonini

berdi. Bunda insonning shaxsiy hosilasi sifatida fuqarolik jihatlaridan har birining mohiyati ochib berildi.

Tadqiqot ishida oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan talabalarning fuqaro savodxonligini oshirish mohiyati keng ko'lamda yoritildi. Oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan talabalarda fuqaro savodxonligini oshirish xuquqiy, ilhomlantiruvchi kuch beruvchi, qadriyatli tamoyillarni amalga tatbiq etishni ta'minlashiga harakat qilingan.

Takomillashtirilgan model bu ilmiy ishimizda qo'yidagi holatda tatbiq etildi. Bu modelni tashkil etishdan maqsad – oliy ta'lim muassasasida tahsil oluvchi talabalarni fuqaro savodxonligini oshirishning tartiblashtirilgan jamlanmalari va ularning tamoyillari; vazifalari; yondashuvlari; talabalarning fuqaro savodxonligini oshirish bo'yicha professor-o'qituvchi ish jarayonlari yo'nalishlari: a) talabalar shaxs, siyosiy huquq, huquqiy davlat, tartib, tizim, intizom va boshqa tasavvurlarni rivojlantirish; b) tahsil oluvchilarni jamiyatda amal qilinadigan hulqiy qoidalarga amal qilishga o'rgatish; v) talabalarga davlatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda o'z o'rnini borligini tushuntirish.

Tadqiqot ishining asosiy masalalaridan yana biri pedagog faoliyat yo'nalishlari qatorida amalga oshirilayotgan fuqarolik savodxonligini rivojlantirishning mazmunini aniqlashtirish hisoblandi. Oliy ta'lim tizimida o'tiladigan fanlarning ilmiy ma'lumotlar darajasida fuqaro savodxonligini oshirishning huquqiy jamlanmalar mazmunini tashkil etuvchi iboralar; fuqaro savodxonligini oshirishning ilhomlantiruvchi ahloqiy kuch beruvchi jamlanmalari mohiyatini tashkil etuvchi qadriyatlar, shu bilan birga, xulqiy komponent mohiyatini tashkil etuvchi tamoyillar ajratildi. Tadqiqot jarayonida o'quv fanlarining ilmiy ma'lumotlarda tushunchalarni saralab olishda muammolar aniqlandi va ular fuqarolik savodxonligini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarida bartaraf etish yo'llari ko'rsatib berildi.

Tadqiqot jarayonida talabalarning fuqarolik savodxonligini oshirish bo'yicha pedagog faoliyatining amaliy tomonlari talabalarga adolat, jamiyatni birlashtiruvchi konsolidatsiya g'oyasiga sodiqlik, axloqiylikda yo'lni to'g'ri belgilab olish, fahmlash, "hozir va aynan shu yerda" xulq normalari, vijdon amri tamoyillarini o'rgatish lozimligi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlari natijasida talabalarning "fuqaro", "fuqarolik jamiyati", "fuqarolik" tushunchasi, ijtimoiy holat, ijtimoiy tartib intizom va boshqa tushunchalarga oid qarashlarini rivojlantirishni ko'zda tutuvchi talabalarda fuqarolik savodxonligini rivojlantirish; ularni milliy qadriyatlarga jalb etish; talabalar siyosiy-huquqiy xulqi malakalarini oshirish muvaffaqiyatli bo'lishi aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.03/30.01.2020. Ped.26.01 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

УМАРОВ ДЖАМШЕД САЙИТМУРАТОВИЧ

**РАЗВИТИЕ ГРАЖДАНСКОЙ ГРАМОТНОСТИ СТУДЕНТОВ В
УСЛОВИЯХ ОБНОВЛЯЕМОГО УЗБЕКИСТАНА**

13.00.01 – Теория педагогики. История педагогических учений

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2022

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистана за №B2022.2.PhD/Ped3046.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном педагогическом университете.

Диссертация авторефераты уч тилда (ўзбек, рус, инглиз (резюме)) Илмий кенгашининг веб-саҳифаси-www.tdpu.uz ҳамда «ZiyoNet» ахборот-таълим порталида www.ziyo.net жойлаштирилган.

Научный руководитель: **Халиков Аъзам Абдусаломович**
доктор педагогических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Хакимова Мухаббат Файзиевна**
доктор педагогических наук, профессор

Рахматова Феруза Абулқосимовна
доктор философии по педагогическим наукам(PhD)

Ведущая организация: **Гулистанский государственный университет**

Защита диссертации состоится «__» _____ 2023 года в __ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 при Ташкентском государственном педагогическом университете (адрес: 100185, город Ташкент, Чиланзарский район, ул. Бунёдкор, 27. Тел.: (99871) 276-79-11; факс: (99871) 276-76-51, e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного педагогического университета (зарегистрирована за №__). Адрес: 100185, город Ташкент, Чиланзарский район, ул. Бунёдкор, 27. Тел.: (99871) 276-79-11; факс: (99871) 276-76-51.

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2022 года

(реестр протокола рассылки № _____ от «__» _____ 2022 года).

З.Н.Мамаражабова
председатель Научного совета
по присуждению ученых
степеней, д.п.н., профессор

Р.Г. Исянов
ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых
степеней, к.п.н., доцент

С.С.Булатов
председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению
ученых степеней, д.п.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В образовательных учреждениях мира на основе международной концепции ЮНЕСКО по образованию внедряются в образовательный процесс инновационные креативные модели развития гражданской грамотности. Ведутся практические работы по совершенствованию гражданской культуры, моральных (духовных) качеств, структурных и рефлексивно-сознательных отношений поведения.

В образовательных и научно-исследовательских учреждениях мира проводятся научные исследования в области формирования патриотических чувств молодежи, воспитания их в духе преданности социальным отношениям между личностью, семьей, обществом и государством. Особое внимание уделяется научным исследованиям в области социализации личности, обеспечению прочности семей, реализации прав, свобод и обязанностей личности.

В нашей республике в последние годы разрабатываются нормативные основы развития гражданской грамотности студентов, гармоничного их воспитания в духе национальных идей, совершенствования борьбы против духовно-нравственных аспектов угроз молодежи. В Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан в качестве приоритетных задач сегодняшнего дня определено «воспитание физически здоровой, духовно и интеллектуально развитой, самостоятельно мыслящей, преданной Родине молодежи с твердыми жизненными взглядами, повышение ее социальной активности в процессе углубления демократических реформ и развития гражданского общества»². Это служит развитию гражданского иммунитета студентов, дальнейшему повышению эффективности духовно-просветительской работы для содержательного проведения из свободного от занятий времени. Бу эса талабаларнинг фуқаролик иммунитетни ривожлантириш, дарс ва дарсдан бўш вақтларини мазмунли ўтказишлари учун маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини янада оширишга хизмат қилади.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит осуществлению задач, поставленных в Законе Республики Узбекистан №ЗРУ-406 «О государственной молодежной политике» от 14 сентября 2016 года, указах Президента Республики Узбекистан №УП-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» от 7 февраля 2017 года, №УП-5618 «О коренном совершенствовании системы повышения правосознания и правовой культуры в обществе» от 9 января 2019 года, №УП-5847 «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года, №УП-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, Постановлении Президента Республики Узбекистан №ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших

² Указ Президента Республики Узбекистан. О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан. №УП-4947. 7 февраля 2017 года. Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2017 г., № 6, ст. 70.

образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах” от 5 июня 2018 года [11], а также в других нормативно-правовых актах, касающихся данной сферы деятельности.

